

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-5/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

It egalari buni to'qiganlar zab.
Birovlar itidan bo'lgil ehtiyot,
O'zingniki bo'lsa boshqa gap.

“It – vafo, xotin – jafo” maqolining birinchi komponenti qo'llangan bu she'rni o'qib, undagi chuqur ma'noni ilg'ash bilan birga, kishi yuzida beixtiyor kulgu paydo bo'ladi. Achchiq kulgu ifodalangan “Hangoma”she'rida esa “Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi” maqoli boshqacha bir shaklda, qayta ishlangan holda, ya'ni “qutulmoq” leksimasi o'rnida she'r mazmuniga muvofiq “shod bo'lmoq” so'zini “Sulaymon o'ldi-yu, devlar demak shod, Abdulla Orifga yaqin yurmagin” tarzida ifodalanib, shoir fikrini dalillashga xizmat qildirilgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek she'riyatining atoqli vakili Abdulla Oripovning samimiy tuyg'ularga burkangan, falsafiy she'riyatini “inson hayot yo'llarini yorituvchi nur”, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir she'rlarini mutolaa qilish jarayonida o'zini buyuk donishmand bilan suhbatlashayotgandek, undan hayotiy savollarga xalq maqollari orqali javob olayotgandek his qiladi kitobxon. She'rlardagi oddiy folklorizmlarning aksariyati, qayta ishlangan holda taqdim qilinadi, vazn va ohang talabi bilan she'r mazmuniga singdirib yuborilganiga guvoh bo'lamiz. Shoir lirikasida qo'llangan xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan maqollar ijodkor fikrini dalillashga, she'r mazmunini, g'oyasini teran anglatishga va lirik qahramon kayfiyatini ochib berishga xizmat qilganini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологияси masalasira доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №4
2. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 1982. –№ 2
3. Oripov. A. Everest va Ummon. –T.: O'zbekiston, 2015.
4. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги.–Т.:ZARQALAM, 2006.
6. A. Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 1-jild –T.: Adabiyot va san'at, 2000.
7. A. Oripov. Talosh pallasi. T.: Ma'naviyat, 2007.

UO'K 881.111.1

POETIK KONSTRUKSIYA TAKOMILIDA O'ZBEK VA INGLIZ HIKOYALARI SINTEZI

A.Baisov, tadqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Maqolada poetik konstruksiya takomilida o'zbek va ingliz hikoyalari sintezi haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib borish maqsadida badiiy asarlarning tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ingliz tili, poetik konstruksiya, fenomen, sintezlovchi poetik qonuniyat

Аннотация. В статье говорится о синтезе узбекских и английских рассказов в развитии поэтического построения. С целью раскрытия содержания статьи рассматривается анализ художественных произведений.

Ключевые слова: узбекский язык, английский язык, поэтическая конструкция, феномен, синтезирующий поэтический закон.

Abstract. The article talks about the synthesis of Uzbek and English stories in the development of poetic construction. In order to reveal the content of the article, the analysis of artistic works is discussed.

Key words: Uzbek language, English language, poetic construction, phenomenon, synthesizing poetic law

Dunyo adabiyotining ulkan xazinasida hayot haqiqatini qisqa, aniq va ixcham tarzda ifodalab beradigan janrlardan biri hikoyadir. Uning ilk ildizlari, taraqqiyot tamoyillari azim folklor an'alariga borib tutashuvini hisobga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Har qanday janr o'zidan oldingi va keyingi an'analarni birlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, sintezlovchi poetik qonuniyatga tayanadi. Insonning bilish darajasi qanchalik yuqori bo'lgani sayin, tafakkur sarhadlari ham muntazam yangilanib, taraqqiy etib boradi. Shuningdek, davrlar almashinuvi, xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqlar, adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslik singari hodisalarda ham adabiy turlar ma'lum ma'noda o'z qiyofasini o'zgartiradi. Hikoya – endilikda katta bir jamiyat hayotini emas, kichkina bir hudud, oila, shaxs timsolida jamiyat, millat tarixini ko'rsatib, idroklab berishga qarab evrilmoqda. Bunday deyishimizga sabab, global dunyoda inson fenomeni, iste'molchilik kayfiyati, taraqqiyot tendensiyalari kabilar o'zigarishga keng imkon yaratmoqda.

Hikoya janrining genezisi haqida to'xtaladigan bo'lsak, “Adabiyotshunoslik lug'ati”da shunday ta'rif beriladi: “**Hikoya** – epik turning kichik shakli. H., odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi H.ning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo'lishini taqozo etadi. Har qanday voqea ham hikoyabop emas.

H.asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo'lishi talab etiladi, buning uchun u o'zining boshlanishi va yakuniga ega bo'lishi (masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi. H.ning ikki tipi bo'lib, birinchisida ocherkliklik (tavsifiy-rivoyaviy), ikkinchisida novellistik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyati ustundir. Adabiyotshunoslikda bularning birinchisini H., ikkinchisini **novella** deb farqlash amalyoti ham mavjud". Darhaqiqat, hikoya haqidagi bu kabi qarashlar Aristotel davridan buyon baholanib, sayqallanib, uning jamiyat tutumi va mafkuraviy yo'sinda o'zgarib kelayotgani ham sir emas. Biroq mazkur jarayon hikoyachilikda yangi-yangi moduslarning yuzaga kelishi uchun katta zamin tayyorlab berayotgani ham e'tiborga loyiqdir. Dunyo adabiyotida hikoyachilikning mavzu-mundariyasi mustaqil janr sifatida yozma adabiyot paydo bo'lgandan keyingina yangi bosqichga ko'tarildi. Yevropa adabiyotida hikoya janrining taraqqiyoti italiyalik yozuvchi Bokachchoning "Dekameron" asari bilan boshlangani haqida ma'lumotlar mavjud. "Muallif-roviy-qahramon" uchligi hayotiy materialni har bir yozuvchi yangilashga xizmat qiladi. "Birgina hikoyachilikni oladigan bo'lsak, uning ilk bor yuzaga kelishidagi manbalar – latifa, ertak va hikoyatlardan ajralib chiqishini, mustaqil janr sifatida vujudga kelishida namoyon etgan o'ziga xos xususiyatlarni, o'zbek adabiyotining nasriy janrlari sistemasida tutgan o'rni va ahamiyatini, milliy realistik hikoyachilik maktabining tug'ilishi, qaror topishi va taraqqiyot tendensiyalarini, yetakchi adiblar ijodiyotining novatorlik alomatlarini, badiiy shakl va uslubiy izlanishlarini, san'atkorlar dunyoqarashi va ijodiy metodlar ta'sirida" yuzaga kelishini aniqlab olish zarur. Negaki, janr adabiy silsilalar jarayonida o'zgaruvchanlik kasb etadi. O'zbek adabiyotida ilk yozma adabiy yodgorliklar Kultegin, To'nyuquq bitiktoshlaridagi ifoda qilingan voqeliklarda hikoyalar asardagi qahramonlar tilidan bayon qilingani sir emas. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarlaridagi ba'zi hikoyatlar – hikoya janrining bugungi o'zbek adabiyotidagi joriy shaklu shamoyilini aniqlashda muhim omil bo'la oladi. Yevropada hikoyachilikning yuksak namunasi ingliz, fransuz, italiya xalqlari hayotiga taalluqli katta-kichik voqelikni o'zida namoyon qilgan asarlarda ko'rinadi.

Yangi davr hikoyachiligi: uslub va shakl birligi. XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar negizida hikoyaning yangi shakli A.Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi bilan boshlanadi. Keyinchalik Cho'lpon, A.Qahhor, G'.G'ulom, Oybek kabi yozuvchilar janrning shakliy-uslubiy jihatlarini mustahkamlashga hissa qo'shdilar. Demak, inson ruhiyatining nozik bilimdoni yozuvchi poetik olamida tasavvur va tafakkur birligi uyg'un bo'lsagina asar yashovchanlik kasb etadi. Bu haqda f.f.n., dos. G.Sattarova qayd etadi: "XX asr ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek hikoyanavislari davr kishisi xarakterini yaratishda turli usul va metodlardan, adabiy uslublarning turli ko'rinish va shakllaridan foydalanganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari ijodkorlarimiz davrning ijtimoiy muammolarini tasvirlashda asotirlar, ertak va afsonalar, diniy-falsafiy talqinlardan asarlariga keng miqyosda olib kirganliklarini kuzatish mumkin. O'zbek hikoyachiligi jahon tajribalarini ijodiy o'zlashtirgan holda tobora o'z milliy qiyofasiga ega bo'lib bordi. Bu o'zgarishlarning asosiy sababi 40 yillardagi siyosiy-madaniy hodisalar, yozuvchilarning birinchi Kongressida ular oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar bo'lsa, XX asrning 50-yillaridan iqtisodiy sohalarida g'arbning ta'siridan xoli bo'lish, milliy lashtirish siyosatining kuchaygani, adabiyotda esa, aksincha, G'arbiy yevropa, Lotin Amerikasi va rus nasri tajribalarini o'zlashtirish tamoyili kuchayganligi bilan izohlanadi". Darhaqiqat, ingliz nasridagi poetik konstruktsiya haqida ham shuni alohida ta'kidlash lozimki, asarlardagi sahnaviylik (novellistik ruh), ijtimoiy tabaqalanish, yo'qsilik, tragik kayfiyat va mifopoetik o'lcham kengayishi bilan ham belgilanadi. XX asr boshlariga kelib o'zbek va ingliz yozuvchilari izlanishlarida folklordan boshlangan adabiy o'sish, mumtoz badiiyat durdonalaridagi tasvir ekzitsensiyasi ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatdi. Bu adabiy ta'sir doirasi bugungi kunda ikki tipga ajratish mumkin: **1. Realistik. 2. Norealistik.**

Realistik proza hayot haqiqatini boricha, mavjudligicha inkishof qilsa, norealistik talqin ramziy-majoziy yo'sinda, metaforik talqin qiladi. Bu neomifologizm tomon siljishni anglatadi. Shuningdek, har bir yozuvchi badiiy olami o'zining chuqur izlanishlari, hayotni teran o'rganishi bilan yuksala boradi. Masalan, ingliz yozuvchi ayoli Agata Kristini detektiv adabiyotini yuksak cho'qqiga olib chiqqan yozuvchi sifatida eslashadi. Uning har bir qahramoni ingliz xalqning bir qiyofasini namoyon qilishga yo'naltirilgan. O'zi alohida ta'kidlaganidek: "Detektiv — axloq hikoyasi. Bunday kitoblarni yozgan va o'qigan barcha insonlar kabi, men ham jinoyatchi va aybsiz aybdorlikka qarshi edim. Detektiv asarlar o'qiy boshlanganida ular da yozilgan lavhalar tufayli shafqatsizlik uchun shafqatsizlikdan sadistlar cha rohatlanish mumkinligi hech kimning xayoliga kelmasdi, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi", – deb yozadi o'z tarjimai holida. Agata Kristining qahramonlari – davrning ilg'or kishilari bo'lishi bilan bir qatorda, o'zida ma'lum bir tarbiyaviy jihatni namoyon qilgan obrazlardir. U o'zining barcha qahramonlarini hayotdan, qarindoshlaridan, ajdodlaridan, yaqinlaridagi salbiy-ijobiy xarakterlardan jamlab yaratgan. Uning ko'pchilik hikoyalari shaxsiy hayoti, baxtsiz bolaligi va turmush o'rtog'ining xiyonati sabab yuzaga

kelgan, butunlay hayotini o'zgartirib yuborgan unutilmas voqealarning parchalari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shafqatsizlik, oiladagi notinchlik yozuvchini detektiv janrda shuhrat qozonish sari yetakladi.

XX asrning 30-40 yillariga qadar hikoya janrining poetik sarhadlari aralash (sinkretik) yo'sinda yuzaga chiqishda davom etdi. Bir tomondan jadid mutafakkirlari, ikkinchi tomondan esa sho'ro mafkurasining adabiyotda bir xillikni targ'ib qilishga safarbar qilinishi sabab bo'ldi. Yevropa xalqlaridan kirib kelayotgan badiiy asar (hikoya)larda turmushning achchiq va shafqatsiz manzarasi aks etgan – qotillik, detektiv, shafqatsizlik, o'g'rilik va shunga o'xshagan ijtimoiy mavzular inkishof qilingan asarlar ko'payib bormoqda edi. Sobiq ittifoq adabiyoti vakillari va shu bayroqni ko'taruvchilar buni juda yaxshi tushunishardi. A.Qahhorning "O'g'ri", G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalari o'sha urush va urushdan keyingi xalq hayotining asl manzaralarini aks ettirishi bilan ajralib turardi. Ingliz nasridagi poetik konstruksiya esa yozuvchilarning ijtimoiy muhit suvratini: insonning erki, haq va huquqlari birlamchiligini, har qanday inson baxtli yashashga haqli ekanligini ko'rsatib beruvchi asarlar bilan takomillashib borardi.

"Hikoyaning belgilari bizga janrning algoritmik modelini tuzish imkonini beradi. Ammo badiiy adabiyat tarixidagi har bir davr bu algoritimga o'z tuzatishlarini kiritib boradi. Bu, bizning fikrimizcha, davrning ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligi va adabiyot rivojining ichki qonuniyatlari bilan belgilanadi", – deya yozadi tadqiqotchi S.Kamilova. Binobarin, hikoyaning ichki rivojlanish qonuniyati o'zbek adabiyotida, balki ingliz nasrida ma'rifatparvarlik davri adabiyotining gullab-yashnagan davridan keyin yangi bosqichga ko'tarilgani ma'lum. Chunki o'sha davr oralig'ida "eski va yangi" tamoyilga ko'proq urg'u berilgan.

Shu ma'noda o'zbek va ingliz nasrida poetik konstruksiyani quyidagi qirralarda o'rganishni maqsad qildik:

- 1) *O'zbek hikoyachiligida obrazlarni milliy nasrda mavjud an'analar negizida qayta ishlash;*
- 2) *Hikoyaning mustaqil janr sifatidagi rolini aniqlash borasida an'ana va novatorlik prinsiplari yordamida tipiklashtirish;*
- 3) *Ingliz yozuvchilari badiiy izlanishlarida g'oya markazida uyushgan voqelikni novellistik ruhda yuzaga chiqish sabab va oqibatlarini talqin qilish;*
- 4) *Ijtimoiy munosabatlar silsilasida inson erki va ozodligi yo'lida kurash olib borishi, o'zligini anglash va davr ruhiyatini tashuvchi qahramonlar tabiatini kashf qilish;*
- 5) *Tarixiy, fantastik va detektiv voqelikning har ikkala xalq adabiyotida – folklordan o'tib kelayotgan kolliziyalar, situatsiyalar, kayfiyatlar mahsuli ekanligini qiyosiy-tipologik aspektida dalolatlashdan iborat.*

Agata Kristining qalamiga mansub mazkur hikoya "Shohida" deb nomlanadi. Hikoyada er-xotinning bir-biriga insoniy muhabbati tasvirlanadi. Unda o'z jufti halolidan shubhalangan ayolning murakkab va serg'alva qiyofasi aks etadi. Biz hikoyada boshqa bir jihatga e'tibor qaratishni lozim topdik. Yozuvchi E.Xemingvay singari – telegraf, dialog usulidan unumli foydalangan. Bu usul orqali advokat va qotil (jabrlanuvchi) orasidagi kolliziyalar negizida butun jamiyat hayoti, haq va haqsizlik ochib tashlanadi. Aybdor o'z aybiga iqrar bo'lishi, yolg'on uydirma bilan ayoli uni qamoqqa jo'natishi kabi masalalar asarning syujetin tashkil qiladi. Voqelik shu qadar chigallashib ketadiki, birovga yordam beraman deb, boshi balolar orasida qolib ketgan Voul ismli qahramon haqida qiziqarli sargo'zasht hikoyada katta bir umumlasmaga keng yo'l ochadi. Qayd etish joiz, nafaqat ingliz, balki Yevropa xalqlari hikoyalarida – **sarguzasht** voqelik o'quvchilar diqqatini o'ziga tortmay qo'ymaydi. Ayniqsa, asar qahramonlari bilan birga hayotning universal modelini kashf qilish mumkin. Hikoyada uchta muhim syujet liniyalari mavjud. Birinchisi, advokat bilan qotilning uchrashuvi, ikkinchisi shubha-gumonlar orasida o'ylab topilgan uydirma xat, uchinchisi, aybdorning o'z fazilatlarini to'g'ri anglab olishi uchun berilgan imkonning yozuvchi tomonidan bo'rttirilishi. Yozuvchi shu uch tasvir chiziqlarini syujet va kompozisiyaga muvofiq ravishda tartiblashtiradi. Ayniqsa, bosh qahramon Voulning ruhiyatidagi o'zgarishlarni dialoglarga sohib yubradi. Bu usul adibning ijodiy niyati va konseptual qarashlari benihoya murakkab va xilma-xilligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Разговор о новелле//Знамя. 1935. №1.
2. Adabiy tur va janrlar. 1-jild. –T.: "Fan". 1991.
3. Adabiy turlar va janrlar. 3-jildi. –T.: Fan. 1992.
4. Quronov D., Mamajnov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: "Akademnashr". 2013.
5. Kamilova S. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rus va o'zbek adabiyotida hikoya janri poetikasining rivoji. Filol.fan.dok.avtoreferati. –Toshkent. 2016.